

XORAZM VILOYATI YALPI HUDUDIY MAHSULOTI

2026-yil yanvar-mart


- I. Yalpi hududiy mahsulot
- II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 14 280,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 10,6 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,2 % ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-mart



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 108,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,6 %, xizmatlarda – 107,8 % va sanoatda – 106,7 % qayd etildi.


2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi



II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari va tarkibi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,5 %), sanoatda – 108,1 % (16,6 %), qurilishda – 127,6 % (10,2 %), xizmatlar sohasida – 110,4 % ni (51,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,5 % (18,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,2 % (9,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,0 % dan (23,8 %) iborat bo'ldi.



**2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	11 888,0	14 280,8	110,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 648,9	13 921,8	110,4
mahsulotlarga sof soliqlar	239,1	359,0	117,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 648,9	13 921,8	110,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 525,9	2 987,5	105,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 069,5	3 730,3	114,8
sanoat	2 009,2	2 316,7	108,1
qurilish	1 060,3	1 413,6	127,6
xizmatlar	6 053,5	7 204,0	110,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 164,8	2 586,5	112,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	966,3	1 296,6	122,2
boshqa xizmat tarmoqlari	2 922,4	3 320,9	105,0

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,0	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2,0	2,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21,7	21,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,3	26,8
sanoat	17,2	16,6
qurilish	9,1	10,2
xizmatlar	52,0	51,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,6	18,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,3	9,3
boshqa xizmat tarmoqlari	25,1	23,8

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot


Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 891,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,6 % ga yuqoridir.



Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 9 293,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 7 822,4 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 66,8 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 67,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi (pasayishi) yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.



IV. Yalpi hududiy mahsulot boʻyicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi koʻrsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga koʻra, yaʼni u ushbu hududning rezidentlari boʻlgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy narxlarda yalpi qoʻshilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yigʻindisi orqali baholashni koʻzda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot boʻyicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida maʼlumotlarning yoʻqligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni oʻziga xos xususiyatlari sababli hududlar boʻyicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning oʻrtacha aholisi soniga boʻlish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning oʻrtacha aholisi soni boʻyicha demografiya va mehnat statistikasi maʼlumotlaridan foydalaniladi.

Havolalar

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash boʻyicha uslubiy nizom

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash boʻyicha uslubiy nizom

Yalpi hududiy mahsulot